



**QASHQADARYO VILOYATI  
QAMASHI TUMANI HOKIMINING  
QARORI**

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko'chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

---

2022 - yil 15 - iyun

219-4-58-Q/22

Qamashi tuman hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 26-maydagi 380-4-0-Q/22-son qarorlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 26-maydagi 380-4-0-Q/22-son qarorlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, 2022-2026 yillarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlashning **asosiy prognoz ko'rsatkichlari** tasdiqlanganligi inobatga olinsin va ijroga yo'naltirilsin.

3. Tuman hokimligi (T.Raximov), Moliya bo'limi (Sh.Pardayev), Xalq ta'limi bo'limi (N.Abrayeva) 2023-2024 yillarda maktablarda ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash bo'yicha dasturni moliyalashtirish uchun **mahalliy byudjet** hisobidan mablag' ajratilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi (T.Raximov), Xalq ta'limi bo'limi (N.Abrayeva) bilan birgalikda 2022/2023 o'quv yilidan boshlab 400 nafargacha o'quvchisi bo'lgan

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Internet tezligi **kamida 40 Mbit/s**, o'quvchilar soni 400 nafardan yuqori bo'lganlarda - **kamida 100 Mbit/s** bo'lishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligi (Q.Xaydarov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi (R.Axmedov), Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi (B.Shaymurotov), Moliya bo'limi (Sh.Pardayev), Arxitektura va qurilish bo'limi (J.Uralov), Xalq ta'limi bo'limi (N.Abrayeva) bilan birgalikda 2022-2026 yillarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash hisobiga yangi quvvatlar yaratilishini ta'minlasin.

6. Tuman hokimligi (T.Raximov, B.Haydarov, Q.Xaydarov, J.Norqobilov), Xalq ta'limi bo'limi (N.Abrayeva), Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha tuman kengashi tarkibidagi tashkilotlar zimmasiga:

**2022/2023 o'quv yilidan** boshlab tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalarini hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarini bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlash choralari ko'rish;

Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha tuman kengashi tomonidan tasdiqlangan dasturda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;

har chorakda dasturda belgilangan vazifalar ijrosini xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida muhokama etib borish hamda Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha viloyat kengashga bu haqida axborot kiritilishini ta'minlash;

tuman xalq ta'limi bo'limining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ularning infratuzilmasini yaxshilash;

xalq ta'limi muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash, ularga tutash hududlarni obodonlashtirish, infratuzilmani (trotuarlar, yo'llar va boshqalar) zarur holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi funksiyasini amalga oshirish;

xalq ta'limi muassasalarini elektr energiyasi, ichimlik suvi, zarur sanitariya-gigiyena sharoitlari va boshqa kommunal xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlash;

tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektor rahbarlari bilan birgalikda xalq ta'limi muassasalarini o'quv yiliga va kuz-qish mavsumiga o'z vaqtida va samarali tayyorlash tadbirlarini amalga oshirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan

hududlar atrofini o‘rash, ularga huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha inspektorlarni biriktirish, videokuzatuv kameralari va yong‘inga qarshi signalizatsiya tizimlarini o‘rnatish choralari ko‘rish;

xalq ta'limi muassasalari hududining va ko‘chmas mulkining butunligini hamda daxlsizligini belgilangan tartibda ta'minlash;

umumiy o‘rta ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun investitsiyalarni va homiylik yordamini jalb qilishga ko‘maklashish;

xalq ta'limi muassasalariga ko‘maklashish masalalari bo‘yicha vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tuman bo‘limlari rahbarlarining hisobotlarini belgilangan tartibda eshitish;

o‘qituvchi kasbi maqomi va obro‘cini oshirish, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, pedagoglarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik va faoliyatiga aralashmaslik;

o‘quvchilar ongiga vatanparvarlik tuyg‘ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini o‘rganishlari uchun sharoitlarni yaratishda sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlarni keng jalb etish;

soha xodimlari, ta'lim muassasalari rahbarlari, pedagoglarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi shaxsiy hissasi, o‘quvchilarni har tomonlama yetuk avlod etib tarbiyalashdagi mas'uliyatlarini his etishlari uchun targ‘ibot va tushuntirishlar olib borish;

rahbar va pedagog kadrlar tomonidan ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni, sohada joriy qilinayotgan yangiliklarni yanada kengroq targ‘ib etilishi, o‘quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishlari uchun kerakli bo‘lgan ma'lumotlarni olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish, ularning bilimi va tafakkurini oshirish maqsadida xalq ta'limi yo‘nalishidagi bosma nashrlarni ta'lim muassasalariga yetkazib berishni ta'minlash vazifalari yuklansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib xalq ta'limi bo‘limi boshlig‘i N.Abrayeva, Moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Pardayevlar belgilansin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Raximov va tuman hokimining o‘rinbosarlari B.Haydarov, Q.Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



B.Tog'ayev